

VASHINGTON IRVING ASARLARIDA SATIRA VA YUMOR IFODALANISHINING LISONIY MANZARASI

Rasulova Soxiba Ulug'bekovna
Samarqand davlat chet tillar instituti, Ingliz til va adabiyoti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Washington Irving hikoyalari misolida satira va humor badiiy vositasi tahlilga tortilgan. Asarlarda satira va yumorni yuzaga keltiruvchi faktorlar aniqlangan. Yozuvchi asarlarida qahramonlaridagi tashqi jihatdan ko'zga ko'rinnmaydigan, lekin ichki jihatdan yaramas, arzimas odatlar fosh etiladi. Kulgu qanchalik fosh etsa, uning mohiyati shunchalik ochib berishi misollar orqali tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: satira, sarkazm, humor, obraz, talqin, parodiya, kinoya.

ЛИНГВИСТИКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВЫРАЖЕНИЯ САТИРЫ И ЮМОРА ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ВАШИНГТОНА ИРВИНГА

Расулова Сохiba Улугбековна

Самаркандский государственный институт иностранных языков, Старший преподаватель кафедры английского языка и литературы

Аннотация: В данной статье анализируется сатиры и юмор на примере рассказов Вашингтона Ирвинга. В произведениях выявлены факторы, создающие сатири и юмор. В произведениях писателя раскрываются внешне незаметные, но внутренне озорные, мелочные повадки его герояев. Чем откровеннее смех, тем больше его сущность анализируется на примерах.

Ключевые слова: сатира, сарказм, юмор, образ, интерпретация, пародия, ирония.

LINGUISTIC FEATURES OF THE EXPRESSION OF SATIRE AND HUMOR IN THE WORKS OF WASHINGTON IRVING

Rasulova Sokhiba Ulugbekovna

Samarkand State Institute of Foreign Languages Senior teacher of the department of english language and literature

Abstract: This article analyzes satire and humor as an example of Washington Irving's stories. Factors that create satire and humor are identified in the works. The writer's works reveal the outwardly invisible, but internally mischievous, petty habits of his characters. The more revealing the laughter, the more its essence is analyzed through examples.

Key words: satire, sarcasm, humor, image, interpretation, parody, irony.

Satira (gr.satura – turli, aralash so‘zidan) – ijtimoy hayotning ma'lum tomoni yo ayrim guruh va shaxslarning yaramas salbiy xislatlardan achchiq kulib va uni tanqidiy tasvirlab yozilgan hajviy asar. Satirik asarlar turli janrlarda (roman, povest, hikoya, she'r va boshqa janrlarda) yozilishi mumkin. U holda bunday asarlar “satirik roman”, “satirik povest”, “satirik hikoya”, “satirik she'r” deb ataladi.[1.199]. Badiiy ijodda satiraning o'mni katta. Xususan, Fransua Rable, Djonatan Swift, V.V.Mayakovskiy, N.V.Gogol, V.Irving, Ch.Dikkenslarning satirik asarları davr adabiyotining etuk namunalaridir. Satirada hayotdagi qusurlar ustidan zaharxanda kulgu, sarkazm, masxaralash usuli etakchilik qiladi. Qahramonlardagi tashqi jihatdan ko'zga ko'rinnmaydigan, lekin ichki jihatdan yaramas, arzimas odatlar fosh etiladi. Kulgu qanchalik fosh etsa, uning mohiyati shunchalik ochiladi.

Satirik obraz qisman salbiy obrazga uxshab ketsa-da (davr ikkala tipdagi obrazlar vositasida hayotdagi salbiy kishilar yoxud hayotdagi qusurlar tanqid qilinadi), ular o'rtasida prinsipial farqlar ham bor: salbiy obrazda hayotdagi qusurlar inkor qilinsa-da hajv etilmaydi – yozuvchi ular ustidan ochiqdan-ochiq, kulmaydi. Satirik obrazlarda esa, aksincha, hayotdagi qo'surlar ustidan zaharxanda kulish, sarkazm, kinoya, masxaralash usuli etakchilik qiladi. Satirik obrazning hatti-harakatlari va qilik-odatlaridan kishi nafratlanadi, ulardan jirkanadi. Komik-yumoristik obraz - butun faoliyatini quvnoq, kulgi bilan yo'g'rilgan xarakter. Bu xil obrazlar vositasida yozuvchi hayotdagi ayrim nuqsonlar ustidan kuladi, ularni tuzatishga da'vat etadi. Rus adabiyotshunosi V.Dneprov romanni, Yu.Borev satirani, qator kino nazariyotchilari ssenariyni, o'zbek adabiyotshunosi B.Sarimsoqov esa paremiyani alohida adabiy tur deb hisoblashni taklif etadilar. Albatta, bu takliflarning hammasi ham muayyan asosga ega, biroq ularni qabul qilmaslikka sabablar ko'proq ko'rindi. Masalan, roman o'zida epos va dramaga xos xususiyatlarni jam etgani shubhasiz, lekin romandagi dramatik unsurlar epos tarkibiga singib ketadi, uning xizmatida bo'ladi. Ya'ni, roman dramani o'ziga singdirgani holda ham epik asar bo'lib qolaveradi. Chunki uning asosini rivoyat tashkil qiladi, dramatik unsurlar esa voqealarni hikoya qilishning usullaridan biriga aylanadi. Yoki satirani alohida tur deb sanashga monelik qiladigan sabab shuki, u o'zini epik, lirik va dramatik turlarda birdek namoyon eta oladi.

Irving satiradan nafaqat qahramonlarning axloqiy jihatdan qoloq ekanligini ko'rsatish, balki hikoyaga hazil qo'shish uchun ham foydalanadi. Yozuvchi satirada mubolag'adan, fantaziyadan foydalanish orqali voqeani atayin bo'rttirib oladi. Yozuvchi satirik obrazning tashqi qiyofasini ham masxara qilib ko'rsatishi mumkin. Masalan o'rganish obyektimiz Washington Irving asarlarida, xususan, "Rip Van Vinkl", "Arvoh kuyov", "Sirli kema" kabi asarlarida muallif kishilarning nuqsoni ustidan kulmaydi, balki hajv, tanqid ostiga olingan kishilarning yaramas xislatlarni, xulq-atvorlarini bo'rttirib ko'rsatadi. Adibning "Rip Van Vinkl" hikoyasi bosh qahramoni Rip obrazi orqali davr va inson fojasi satirik yo'l orqali ochib berilgan. Hikoya sujetida Ripning qismati, oilaviy ahvoli va o'zi tenggi insonlardan ancha ortda qolgani (yosh holida) tasvirlari o'sha davr va davr insonlarining nuqsonlarini zaharxanda kulgu orqali ko'rsatib bera olgan. Jumladan:

“Uning bolalari xuddi qarovsiz o’sgan etimlarday yoqavayron, irkit bo‘lib yurishardi. Uning o‘g‘li Rip quyib qo‘yganday otasining o‘zi edi va unga padarining na faqat juldur kiyimi, balki feli ham meros bo‘lib qolishi shundaygina ko‘rinib turar edi”. Rip oilasidan, xotining diydiyolaridan qochib tog‘ga ketadi va u erdagilashdir. Kechalik uyqu hayotida katta bir davrni yo‘qotishiga olib keladi. U qishlog‘iga qaytganda qishloq o‘zgarib ketgan, uyi tanib bo‘lmashahada ahvolda. Qadrondan iti esa unga qarab irillamoqda: “O‘zining uyiga olib boradigan yo‘lni unchalik mashaqqatsiz topib oldi. Lekin u tomonga dilida mana hozir Van Vinkl xonimning hayqirishi yangrasa kerak degan vahima bilan yaqinlashdi. Uylari inqirozga yuz tutgan: tomi o‘yilib, derazalari pachoqlangan, eshiklarning oshiq-moshig‘i qo‘porilib yotardi. Uy yonida oriq, chalaqorin, Qashqirga o‘xshagan bir it tentib yurardi. Rip uni chaqirdi, lekin it tishlarini g‘ichirlatib irilladi-da, nari ketdi. Bu unga judayam alam qildi: “Mening o‘zimning itima, - xo‘rsindisi bechora Rip, - u ham meni unutib qo‘yibdi”. Ripning kechmishi nihoyatda o‘ziga xos tarzda bayon qilingan. Butun boshli yigirma yil bir yoz oqshomida o‘tib ketmoqda. Bu albatta o‘ziga xos kulguli va bir inson umrining naqadar ma’nisiz o‘tganligidan dalolatdir. “Mehnatning og‘ir engilligiga qarab, kishiga oq non va qora non eyish nasib etadi. Rip Van Vinkl bunga e’tibor bermaydiagan, hatto mehnat evaziga farovon yashagandan ko‘ra qo‘lini qovushtirgancha och-nahor o‘tirishni afzal biladigan boqi beg‘am fuqarolar toifasiga mansub kishi edi” Mazkur misolda muallif obrazning dangasalik nuqsonini “boqi beg‘am” so‘zi orqali satirik qo‘llagan. Ripning beparvoligi va yalqovligi va oilasini xonavayron qilgani uchun Van Vinkl xonimdan tinmay tanbeh eshitardi. Amerikaliklar Rip Van Vinklni eslab qolishga sabab bo‘lgan holat uning dangasiligidir. Shu sabali o‘z uyini tez-tez tark qilib turar, qishloqning bekorchilaridan tashkil topgan klubga doimiy kelib turardi. Irving ushbu klub personajlarini “oqilu falasuf” deb tasvirlab, tanqidiy yo‘nalishning birlamchilagini maydonga keltiradi. “Lekin ba’zida qandaydir bir o’tkinchi yo‘lovchi tashlab ketgan eski gazeta sabab bo‘lib, ularning o‘rtasida shunday donishmandlarcha munozaralar avj olardiki ayrimbir davlat arboblarining bunaqa gaplardan oqif bo‘lmoqligi uchun uncha-muncha pul xarj qilishlariga to‘g‘ri kelardi” keltirilgan pachadagi “donishmandlarcha” so‘zi bekorchilarini masxara qilib, satirik kulgini kuchaytirgan.

Satirada “achchiqlangan hisning hamlasi, energiyasi, oljanob g‘azabning momaqaldiroq va chaqmog‘i” mavjud. Bu yo‘nalishlar satirik hikoyalarda yanada jiddiyplashadi. Satirik til fasodni chatnatuvchi nashtardir. U o‘z tegishli kishisiga elektr tokiday tez ta’sir eta oladi va uni o‘sha lahzada ma’naviy jihatdan chil-parchin qiladi. V. Irving satirik novellalar, ocherklar yozib, burjua Amerikasini, uning vakillarini tanqid ostiga oladi. “Shayton va Tom Uoker”, “Xazina izlovchilar” nomli asarlarida Irving hindu qabilalarini qirib tashlash siyosatiga qarshi chiqdi [6.259].

“Shunda ular butun boshli lug‘atdan eng murakkab so‘zni ham tutilmasdan o‘qiy oladigan maktab muallimi, mittigina va nihoyatda olifta kiyinib oлган olimchalik bo‘lmish Derrik vn Bummelning qiroatlari o‘qishini shunaqangi tantanavor vaziyatdagi bir diqqat bilan tinglashdirki, oho!” quyidagi misolda muallif mubolag‘a usulidan foydalangan, kichkina, maqtanchoq va olifta muallim obrazini tasvirlashda olim darajasida ko‘tarishi hajviy (satirik) kulgini namoyon qiladi, yoki uning oliftaligi butun bir lug‘at kitobidagi oddiy so‘zlarni o‘qishini klub bekorchilarini tantanali tinglagan. Muallif bu erda muallim ustidan yumorni qo‘zg‘atgan. Ushbu holat ham Ripning xotinnaing g‘azabini keltirdi. Erimning boqi beg‘am bo‘lishida klub a‘zolari aybdor deb o‘yladi va “mo‘tabar zotlar yig‘inidan” Ripni mahrum etdi. To‘da boshi Nikolas Vedder avliyosifat zot deb keltirilgan. Muallif ushbu qahramonga nisbatan teskari satirik modusi talqin etgan. Ya’ni qahramon o‘zini buyuklar qatoriga qo‘shamoqchi bo‘lganini kulgi ostiga olyapti. “Bu olyi yig‘inning ijtimoiy qarashlariga qishloqning oxoni va qahvaxonanining egasi Nikolas Vedder rahnamo edi; u ertadan kechgacha qahvaxona eshigi oldidan jilmas, quyosh ko‘tarila borgani sari kattakon daraxtdantushib turgan soya qancha uzoqlashsa oftobdan pana bo‘lish uchun u ham shunchalik ko‘p surilib o‘tiraverganidan qo‘shnilari uning harakatini kuztib, vaqtini naq quyosh soatiga qarab bilgani kabi aniq aytib bera olishardi” Kulgi obyekti sifatida olingan personaj ertalabdan kechgacha soat vazifasini bajarishi ustidan kulinadi.

Yuqoridagi tahlilimizda Ripning Qashqir ismli kuchugiga to’xtalgandek. U Pipning yakkayu yagona qadrdoni edi. Van Vinkl xonim erining dangasalik va bekorchiligidagi sheri deb bilganidan zulimiga duchor bo‘laverardi. “Gapning po’skallsini aytganda, barcha halol itlarga xos hamma xususiyatlarga ega edi, mabodo o‘rmonning biron yirtqichiga to‘g‘ri kelib qolganida jasurligida hech bir hayvonga yon bermasdi, lekin doim g‘iybat sasib turadigan qahrli xotin tilining ta’nalari qarshisida unaqangi jasurliklar ip esholmaydi-ku!” jumlaning yumoristik ruhi – jasurlikda tenggi yo‘q it xonimning oldida xuddi bir jinoyat bilan qo‘lga tushganday pusib, dumini osiltirib ma’yuslanib qolardi. Hazilning tabiiyligi yozuvchi it ustidan kulgan.

Shunday qilib, Rip Van Vinkl o‘z uyidan bezib toqqa qochib ketadi. Rip Van Vinklni mitti kishilar yuz yillik rom bilan siylagach, qahramon chorak asr uylab qoladi. Uyiga qarib qaytgan Rip vatani va vatandoshlarini taniy olmaydi. Chunki bu orada Angliyaning mustamlakasi bo‘lgan uning vatani mustaqillikni qo‘lga kiritgan edi. Hamma erda grajdaniqil huquqi, saylovlari, kongress a‘zolari hamda ozodlik haqida jar solayotgan siyosatdonlarni uchratadi. Amerika Qo‘shma Shtatlarining mustaqilligi barchaga erkinlik, teng huquqlilik keltirmagan edi. Yozuvchi yangi tartiblar ustidan kinoya qiladi. Kulgili joyi shundaki, sodir bo‘lgan o‘zgarishlar uni qiziqtirmasdi, chunki Ripning xayotidagi siyosiy o‘zgarishlar tashvishlantirmagandi. Xayotidagi yagona zolim inson, xotinining o‘limi uni xursand qildi yozuvchi buni yumorning asosiy mezoni ekanligini ko‘rsatdi. ”Gapning po’skallasini aytganda, Rip siyosatning unchalik farqiga bormas edi: davlatlar va imperiyalar hayotida bo‘layotgan o‘zgarishalar uning diqqatini jalb etmasdi; u jabr-zulmning o‘zi shuncha yillar ozorini totgan bir turini – yubkaning zolimona hukromliginigina bilar edi. Uning baxtiga bu zulmga ham chek qo‘yilgandi; oilaviy bo‘yinturuqni bo‘ynidan xalos etgan Rip endi Van Vinkl xonimning istibdodini xayoligayam keltirmayuydan bermalol chiqb ketaverar va uyga istagan paytida qaytishi mumkin edi”. Ush parchada Irving majoziy ma’no qo‘llagan. Rip xotinining o‘limi – Angliya hukmronligining emirilishini nazarda qolaversa kulgi tanqidiy tabiatga egadir.

Yozuvchining shuhratini beqiyos shoyon qilib yuborgan asari “Iblis va Tom Uoker” (The Devil and Tom Wolker) hikoyasi tadqiqotimizning keyingi obyektidir. Ushbu asarda Irving 1700-yillardagi Puritan Yangi Angliyaliklarni masxara qilish uchun satiradan foydalanadi. Unda asar yaratilgan yillardagi ruh hukmron: ikkiyuzlamachilik, sudxo‘rlik va

ochko'zlik, mulkparastlik, diniy uyushmalar va qul savdosini fosh qilish masalalari qo'yilgan. Xudbinlik va ochko'zlik o'z-o'zini yo'q qilishga olib keladi, gunohkor xatti-harakatlar jazoga olib keladi. Hatto o'lim bilan yakun topishini Irving ko'rsatadi. «Iblis va Tom Uoker» - bu uchta shaxsning hikoyasi: Tom Uoker, uning rafiqasi va iblis. Tom Uoker juda ziqna odam, uning rafiqasi ham xuddi shunday qurumsoq. Ular o'zlarining boyliklarini ko'paytirish uchun bir-birlaridan pul yashirishgan, nima qilib bo'sada bir-birlarini chuv tushirishga intilishgan. Tom satirik obrazdir. U boylik ortttirishga urinuvchi munofiq, makkor xudbin, soxta tekinxo'r kimsa. Uning munofiqona xatti-harakatlari, mol-dunyo qarshisida odamiylik sifatlarini yo'qtishi, hatto boylik yo'lida xotinidan judo bo'lsa ham g'amga berilmagan holatlari kulgili ochilgan. Tom Uoker xarakteri satirik vaziyatlarda sharmanda qilinib, muallif buni to'liq ohib bergan. Biz tahlilimizda satirik holatni o'zida aks etgan tasvirlar bilan o'rtoqlashmoqchimiz. Jumladan "Tom Uoker degan eti ustixoniga yopishgan bir ziqna kimsa yashab turgan. Uning xotini ham o'ta qurumsoqligi bilan ma'lum bo'lgan, ular nihoyat darajada xasis bo'lishganidan, hatto bir-birini nima qilib bo'lsa-da, chuv tushrishga intilishgan." [8.190]. Muallif asarda asosiy g'oya qilib olgan satira - ochko'zlikdir. Qahramonlarimiz hech tugamagan ochko'zligi uchun badalini ham to'laydi. Oilada juftliklar topgan boyliklarini birga baham ko'rishadi, ammo bularda bir-birlarining mulkini o'g'irlash, ba'zida oilaviy mulk ustida qirpichoq bo'lib janjallahшиб ketardi. Irving asar voqealarida usha davr voqealarini satira qilgan, 1800-yil boshlari doimiy er egaligi va iqtisodning o'sish davri edi. Amerikalik er egalari va ishbilarmonlari o'zlarida etralicha boylik bo'lishiga qaramasdan, bundanam ko'p boylikka ega bo'lishni xoqlashgan, qahramonimiz Tom Uokersingari. Muallif satira qilgan yana bir misollardan biri nikoh munosabatlaridir. Irving bu xarakterlarni yaratish orqali jamiyatda erlarini haqorat qilib, hurmat qilmaydigan ayollarini masxaralagan, Tomning oiladagi nizolarni bo'rttirish orqali tasvirlagan. Er-xotin munosabatlari quyidagi misolda ko'rishiz mumkin: "Tomning xotini o'taketgan mijg'ov va shallaqi, ezma va qo'li bexosiyat banda edi. Ko'pincha uming eri bilan adi-badi aytishib, chinqirayotgan ovozi eshitilib turar, uning afti-basharasining momataloq bo'lib ko'karib yurushidan bu xil g'idi-bidilar faqat qarg'ishu baqiriqlar bilan cheklanib qolmasligi ko'rinish turardi". Muallif Tomning rafiqasi bilan tortishuvlariga urg'u beradi va ularning bir-biriga qanday zarba berishini mubolag'a qildi. Irvingning ta'kidlashicha, janjalkash ayol bilan yashash shunchalik yomonki, iblis bn yashashga tengdir. Bundan tashqari, Tomning xotini bilan kelisha olmasligi tufayli nikoh tanqid qilinadi. Tom xotiniga xazina haqida va Qora odamning shartlarini aytganida, u erini ko'ndirishga unday boshladi. "Xotinining bor xarisligi jo'sh urdiyu, u erini zanjining shartlariga ko'nishga unday boshladi, chunki shu tarzda butun hayotlariga etadigan dunyonи qo'lga kiritish mumkin ediyu, lekin xotinining gapiga kirmaslikka ahd qildida, terslik bilan rejalaridan mutlaqo voz kechdi" [9.505]. Aslida boylik uchun jonini qurban qilishga tayyor bo'lgan Tom, ammo xotini sababli taklifni rad etdi. Tom xoqlamganini ko'rgan xotini bu boyliklarga o'zi bo'lishni o'yladi: "Nihoyat xotini mustaqil harakat qilishga, mabodo utinislari muvaffaqiyat keltirgani holda bor boyliklarni yolg'iz o'zi egallab olishga jazm etdi". Muallif ushbu parchada Tomning xotinini shuhratparast, ehtiyyotkorsiz ayol ekanligini ko'rsatmoqchi, hatto boylik uchun kerak bo'lsa iblis bilan uchrashish – bu xavf-xatarga arziydi deya tasvirlangan. Muallif ochko'zlikni satira qilgan. Ammo bu urinish xotini kutgandek bo'lmadi, Qahramonimiz o'rmonga xotinini izlashga borganda, faqatgina uning organ a'zolarini topdi xolos. Oiladagi munosabatlarning yana biri, Tom xotinining o'limiga munosabati satira qilinadi, undagi kulgini kitobxon sezadi va his qiladi: "Mol-mulkidan ajralgan Tom sabr-toqatl bo'lGANI uchun xotinidan judo bo'lsa ham g'amga berilmadi. O'ziga bir muncha xizmati singanidan u qora daraxt kesardan hatto minnatdor ham bo'lGANDAY bo'ldi". Tomni shunday ta'nakor ayoldan ozod qilgani uchun iblisdan minnatdor ham bo'ladi. Ushbu uchta parchada tanqid obyekti oiladagi er-xotin munosabatlari, Irving satirik obrazlar siyosini chizar ekan, turli bo'rttirish, mubolag'a, oshirib ko'rsatishdan foydalananadi [10.508]. satira yordamida Irving o'z zamonalarda mavjud bo'lgan notinch oilalar muhitini Tomning janjalkash, nizoli oilasi tasvirida ko'rsatib berdi. Irvingning oilaviy qadriyatlardan noroziligini namoyish etadi." Rivoyatga ko'ra, nihoyat Tom sabru toqati tugab, ko'ngliga orom bermay qo'ygan xazinani nima qilib bo'lsa-da, qo'lga kiritish uchun har qanday shartga ham ko'nishga qaror qilgan bir kuni kechqurun botqoqlik atrofida elkasiga boltasini tashlab olgancha allaqanday bir qo'shiqni hirgoyi qilib aylanib yurgan odatdagiday daraxtkesar kiyimidagi qora odamga yuzma-yuz bo'libdi". Yuqoridagi misolda Irving Tomning ochko'zligini satira qiladi, go'yoki xotinining o'limi unga baxt keltirganday. Nihoyat boylikni qo'lga kiritgan Tom mashhur sudxo'rga aylandi. Boylik ko'zini ko'r qildi, hech kimni nazar-pisand qilmay qo'ydi. Muallif mol-dunyo qarshisida odamiylik sifatini yo'qtgan Tom va qashshoq kambag'al suhabatini satira qiladi. "Qashshoq dallol to'lov muddatini bir necha oygagina cho'zishni iltimos qilgandi. Beshavqat, badjahl Tom garovxatning muddatini uzaytirishdan butunlay voz kechdi.

- Axir oilam tariqday tarqab ketib, tilanchilik qilishga mahkum bo'ladi-ya, - yalindi qarzdor.
- Rahm-shavqat har kimning o'z uyidan boshlanadi, - javob berdi Tom. – Men eng avvalo o'zimning tirikchilgim haqida qayg'urishim kerak, og'ir zamonalar, hech imkon yo'q".

"Shunday qilib Tom barcha muhtojlarning mehriboniga aylandi va o'zini barcha "kambag'aldagi do'stlar" kabi tuta boshladi" muallif satirada mubolag'a usulini qo'llagan "kambag'aldagi do'stlar" iborasida, aslida prasent qo'yib pul beradigan sudxo'r Tom qashshoq aholiga nisbatan shunchalik beshavqat edi. Qarzdlarning nochorligidan foydalanim, ularni shilib olib, pulni vaqtida to'lamagani uchun xonavayron qilardi.

Irving bugungi kunda jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarni tanqid qiladi. U din va diniy uyushma oqimlari, shuningdek qul savdosini ustidan zaharxanda kulgi, sarkazm masxaralash usuli etakchilik qiladi. "kvakerlar va anabaptistlarni ta'qib etishga homiylik qilish bilan ko'ngil ovutaman". Bu iqtibosda Irving dinni tanqid qiladi. Bu davrdan oldin Puritanlar ismli diniy guruh bor edi va ular dinning eng sof shaklini topish umidida Angliya cherkovini tark etishgan. Hikoyaning yakuniy qismida nafaqat ochko'zlik, balki dindorlikning yuzaki ko'rinishlarini toat ibodatlarini qoyil qilib yurishi ham satira qilingan. Bunga Tom Uoker yorqin misoldir. Qilgan gunohlarini kechirish uchun qilingan tavbalar barchasi yuzaki edi, u o'ylardiki bu amallar gunohlarini kechirilishida etarli deb. Tom Uoker ikkiyuzlamachi bo'ladi, ibodat qilib tavba tazarru qiladiyu, lekin soxta dindor qiyofasida boylik orttiradigan, munofiq kimsadir. Oxir-oqibat, Tomning soxta diniy g'ayrat jabhasi uni qachonlardir boylik evaziga iblis bilan bitishgan bitim va majbo'riyatlaridan qutqarish uchun etarli emas edi.

"—Agar sizning orqangizdan biron chaqa foyda ko'rgan bo'lsam , ibislarga em bo'lay!"

Bu so'zlar uning og'zidan chiqar-chiqmas eshikning uch marta qattiq-qattiq dukillatgani eshitildi. Kim taqillayotganini bilish uchun Tom o'rnidan qo'zg'aldi. Eshikda betoqat pishqirib, erdepsinayotgan qop-qora tulporning jilovini tutgancha zanji odam turadi". Shu tariqa Tom Uoker shu ketgancha iblis bilan qaytib ko'rinnadi. Uning xarom yo'llar bilan to'plagan boyligi yonib kul bo'lidi. Yozuvchi ishongan narsalari uni joniga ozor bergenini satira qiladi.

Ular faqat xudoning so'ziga sodiq bo'lган din bilan shug'ullanishdi. Bu odamlar juda soqov edilar, garchi odatda ular xudoning so'ziga sodiq bo'lsalarda, xudoning xatti-harakatlarini ayplashdi. Hikoya davomida masxara qilinadigan yana bir narsa - Irving qul savdosi haqida gapiradi. Iblis Tomga pullarni qul savdosiga tikishini aytди, ammo Tom“ ushbu jumlalar tomonidan aytilgan.

Yumor inglizcha namlikdir, inson tanasidagi namlik, suyuqlik deb ko'chma ma'noda tushunishgan. U xarakterning tashqi belgisi va xulqida ko'rindi. Yumor kulgi, hazil, kulgiga moyillik, da'voga moslik, beozor shoxlik tarzidagi holatdir. Bir muncha engil tanqidga asoslangan kulguli asar. Yumoristik asarda yozuvchi turmushdagi va ayrim kishilardagi ba'zi bir kamchiliklardan kulib, uni tanqid qiladi. Bunda yozuvchi tanqid qilanayotgan obyektning yo'q bo'lib ketishini istamaydi, unga hatto achinadi va undagi kamchiliklarning tuzalishini istaydi. Bu bilan yumor satiradan faqr qiladi. Biroq satirada yumor elementi bo'lganidek, yumororda satira elementi mavjud. Yumoristik asar kitobxonning kulgusini qistashi bilan birga, ma'lum ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fikrni ilgari suradi. Adabiyotning xilma-xil namunalari (roman, hikoya, komediya, poema, she'r, epigramma va boshqalar)da yumor bo'la oladi. G'arb adabiyotidagi asosiy namoyandaları Servantes, L. Stern, Ch. Dikkens, V. Irving, N. V. Gogol, M. Tven; o'zbek adabiyotida esa Muqimiy, G'.G'ulom, A. Qahhor, S. Ahmad va boshqalar tasviriy san'atda Yumor voqeа, narsa, jonivor, ayniqsa, kishilarning xatti-harakati kulgili tasvirlangan, engil tanqid etilgan, umuman ko'rinishi, ishi hazil-mutoyiba tarzida ko'rsatilgan tasvir (ko'pincha grafika asari)dir. Maxmur satirik bo'lsa, Muqumiya va Zavqiy satiric va, ayni holda, yumorist edilar. Saltikov-Shchedrin satiric, chunki u samoderjaviye va pomeshchiklar hukmronligini tugatishni xoxladi. Gogol – yumorist, uningcha, rus dvoryan va chunovniklar jamiyatda o'z xatolarini tushunishi, anglashi va tuzalishi lozim. Abdulla Qahhor hajviyotchi edi, uning ijodida satira va yumor jamlangan. Hayotdagи ayrim nuqsonlar engil, quvnoq kulgu ostiga olinadi va ularni tuzatishga chorlaydi. Yozuvchi V. Irving Amerika adabiyoti tarqqiyotiga yumoristik hajviyalari bilan ulkan hissa qo'shgan ulkan adibdir. Uning "Komendant Manko va askar rivoyati" afsonasida obrazlar tasvirida yumoristik ruh ustunlik qiladi. Jumladan: "Qadim-qadim zamonalarda Al-Hamro qal'asiga "komendant Manko" yoki "Bir qo'l" deb nom chiqargan eski shavkatli jangchi hokimlik qilar edi. U bir qo'lini jangda yo'qtgandi. Uning o'zi ko'pni ko'rgan qari jangchi ekanligi bilan faxlanardi. Mo'ylabini rosa o'stirib, ko'zlariga etguncha burab olgan, uzun qayirma qo'njli safar etigi kiygan, uzun sixga o'xshash Toledo ustalari yasagan qilichining dastasiga ro'molchasini qistirib olgan edi". Mazkur afsonada obrazning tashqi qiyofasini tasvirlashda yozuvchi yumordan foydalanganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Tasvirda "Mo'ylabini rosa o'stirib, ko'zlariga etguncha burab olgan", etikning sixga o'xhashi tasvirilari yumor orqali ifodalanganki, bu o'sha davr kishilarining tashqi qiyofasini ko'z oldimizda gavdalantiradi.

Adabiyotlar

Hamidiy H., Abdullaeva Sh., Ibragimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. T.: O'qituvchi, 1970, 199-b.

Днепров В.Д. Идеи времени и формы времени.- М.,1980.

Борев Ю. Основные эстетические категории.-М.,1981.

Sarimsoqov B. Adabiy turlar haqida mulohazalar//O'zbek tili va adabiyoti.-1993, №5-6.

Charles E. Bressler, 2003, p.238. Magdalena Baga. Maqola, The Character of Rip Van Winkle: Representation of disappearing cultural identity. October 2020 Jambura Journal of English Teaching and Literature 1(2):113-126. doi:10.37905/jetl.v1i2.8465.

Hamidiy H., Abdullayeva Sh., Ibragimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1970. – 259b.

To'ychiyev U. O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari – T.: "Yangi asr avlodi", 2011. – 477 b. B 508.

Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar.T.:O'zbekiston davlat nashriyoti, 1955, 190-b.

Ummat To'ychiyev. O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. T.: Yangi asr avlodi, 2011, 136-b, B-505.

Vashington Irving. Hikoya va afsonalar. M. Maximudov va boshq. Tarjimas. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – 61b. B 508.

Q.Azizov, O. Qayumov. Chet el adabiyoti tarixi. T.: O'qituvchi, 1987,126-b, B-329.